

KAPITALNI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11396964>

Tursunova Nargiza Raximovna

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya

akademiyasi dotsenti

nargiza.tursunova@bk.ru

***Annotatsiya.** Mazkur ilmiy tezisdagi aksiyadorlik jamiyatlari kapitalining iqtisodiy mazmuni va ahamiyati yoritilgan. Kapitaldan samarali foydalanish orqali moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari va moliyaviy menejment tizimida kapitalni samarali boshqarishning iqtisodiy ahamiyati bayon etilgan. Shuningdek, aksiyadorlik jamiyatlarida kapitaldan samarali foydalanishga doir doir ilmiy xulosalar keltirilgan.*


***Tayanch so‘zlar:** kapital bahosi, qiymat, investitsiya, qimmatli qog‘ozlar, daromadlilik, likvidlilik, samaradorlik, korporativ tuzilma, innovatsiya.*

Bugungi kunda mamlakatimizda mulkchilikning turli shakllari mavjudligini hisobga olgan holda, korporativ tuzilmalarning kapitalini samarali boshqarish masalalarini, shu jumladan uning shakllanishi, samaradorligi va taqsimlash jarayonlarini o‘rganish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Biznesning zamonaviy ko‘rinishlarini shakllanishi va rivojlanishi kapital egasidan nafaqat kapitaldan oqilona foydalanishga doir qarorlar qabul qilish balki istiqbolda moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda kapitalni yetarliligini ta'minlashda alohida ilmiy yondashuvlarni talab qilmoqda. Korporativ tuzilmalar kapitali korxonada ishlab chiqarish jarayonida ishtirok etuvchi asosiy omillardan biridir. Kapital iqtisodiy kategoriyasiga iqtisodchi olimlar tomonidan berilgan tariflar va ilmiy yondashuvlarni o‘rganish asosida, fikrimizcha kapital - bu uzoq muddatli foydalanish uchun zarur bo‘lgan moddiy boyliklar, shu jumladan pul mablag‘lari majmuidan iborat bo‘lgan hamda ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish

maqsadlari va iqtisodiy faoliyat jarayonida foyda keltirish qobiliyatiga ega iqtisodiy resurs.

Korporativ tuzilmalar kapitalini boshqarish deyilganda turli manbalardan eng optimal manbani shakllantirilishi bilan bog'liq boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va amalga oshirishning turli tamoyillari va usullarning majmui hisoblanadi. Kapitalni boshqarishning maqsadi esa korporativ tuzilmalar normal faoliyatini ta'minlash uchun kapital tarkibini optimallashtirish hamda kapitaldan samarali foydalanish asosida foydani maksimallashtirish hisoblanadi. Korporativ tuzilmalar kapitalini boshqarish mexanizmi uning samaradorligini baholash uchun tanlangan ko'rsatkichlarni hisoblash asosida uning tuzilmasini optimallashtirishga asoslanadi.

Korporativ tuzilmalar kapitalini boshqarishning muhim jihatlaridan biri kapitalni moliyalashtirishning o'z va qarz manbalarini tanlashdir, chunki ular turli xil xususiyatlarga ega: agar qarz kapitalining qiymati past bo'lsa, unga xizmat ko'rsatish xarajatlari soliqqa tortilgunga qadar korxonaga xarajatlarning bir qismi sifatida hisobga olinadi; qarz va xususiy kapital turli darajadagi risklarga ega, chunki qarz kapitali korxonaning moliyaviy barqarorligi va to'lov qobiliyatiga bevosita ta'sir qiladi; turli darajadagi likvidlik, chunki qarz kapitali korxonaga qaytariladigan asosda beriladi va bu holat tadbirkorlik faoliyatini tashkil etishda hisobga olinishi kerak. Korxonaga kapitalini boshqarish jarayoni korxonaga kapitalini shakllantirish manbalarining eng optimal tuzilishiga (tarkibiga) erishishga qaratilgan. Bu moliyaviy risklarni minimallashtirish va korxonaning rentabelligini oshirish, shuningdek, likvidlik va moliyaviy barqarorlikka erishish uchun zarurdir. Yuqoridagilar asosida korporativ tuzilmalar kapitalini boshqarishning moliyaviy menejment tizimida tutgan o'rni va ahamiyatini belgilab olish maqsadga muvofiq (1-rasm).



1-rasm. Moliyaviy menejment tizimida kapitalni boshqarishning ahamiyati va roli

Shuni ta'kidlash kerakki, faoliyati davomida qarz mablag'laridan foydalanmaydigan korxonalar yuqori moliyaviy barqarorlikka ega bo'lsada biroq ularning rivojlanish tezligini oshirish va o'z mablag'larini investitsiya qilishdan rentabellikni oshirishda cheklovlar mavjud bo'lishi mumkin. O'z navbatida, korxonalar kapitalini, ayniqsa uning qarz ulushini boshqarishning samarali mexanizmini izlash orqaligina boshqaruv organi sub'ektlari (moliyaviy mejerlar yoki ijro organi rahbarlari) o'z faoliyati samaradorligini oshirishga shuningdek uning moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlarini oshirishga erishishi mumkin.

Tadqiqotlardan ma'lumki qarz kapitali yoki majburiyatlarga doir asosiy koeffitsientlarni aniqlashda aksariyat tadqiqotchilar qisqa muddatli va uzoq muddatli majburiyatlar yig'indisidan foydalanish o'rniga faqat uzoq muddatli majburiyatlardan foydalanishga ustuvorlik beradi. Tabiiyki investorlar va tadbirkorlik sub'ektlari yuqori rentabellikka ega bo'lishni afzal ko'radi, chunki bu daromadning yuqori darajasini ta'minlaydi. Aksincha, kreditorlar moliyaviy leverej darajasi nisbatan past bo'lgan korxonalarga sarmoya kiritadi, chunki mazkur korxonalar moliyaviy jihatdan mustaqil bo'lib va bankrotlik riski darajasi kam

hisoblanadi. Bundan tashqari, kompaniyaning kapitaldan foydalanish samaradorligi kapital boshqaruvida o'z kapital nisbati koeffitsienti bilan ham muhim hisoblanadi.

Aksiyadorlik jamiyatlarida kapitaldan samarali foydalanishda amaliyotdagi mavjud koeffitsientlarda tashqari turli modellar va algoritmlardan foydalanilmayotganligi bugungi kundagi asosiy muammolardan biri sanaladi. Ta'kidlash lozimki, aksiyadorlik jamiyatlarida korporativ boshqaruv samaradorligini baholashda bir qancha ko'rsatkichlardan foydalanilayotgan bo'lsada, biroq mazkur uslubiyatdan aksiyadorlik jamiyatlarida foydalanilmayotganligi xorijiy investorlarni jalb qilishdagi asosiy kamchilik sifatida qarash mumkin. Chunki xalqaro investorlarni kapitaldan foydalanishdagi samaradorlik ko'rsatkichlarining joriy holatidan tashqari, uni istiqbolda keltirishi mumkin bo'lgan foydalalilik darajasi muhim hisoblanib, shu sababli ham investitsion jozibadorlik ortishi natijasida, kapital samaradorligi oshadi hamda kapitallashuv jarayonlarining tezlashadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Burxonov A.U., Xamdamov O.N. Moliyaviy menejment. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi” - 2020 y. 468 b.
2. Xudoyqulov X.X. Aksiyadorlik jamiyatlarining kapital qiymatini baholashning metodologik asoslarini takomillashtirish. DSc. il.dar. disser. avtoref. – T.: 2021 - 21 b.
3. Разиньков П.И., Максимова А.Д. Ключевые направления эффективного управления капиталом предприятия // THEORIA: педагогика, экономика, право. 2021. № 4 (5). С. 135-141. DOI: 10.51635/27129926_2021_4_135
4. Паршин А.Б. Финансовые инструменты управления основным капиталом предприятия и особенности их применения в РФ / А. Б. Паршин, О.А. Огорокова // The Scientific Heritage. 2021. № 66- 3 (66). С. 12-15.

5. ZM Shaikh, S Ramadass, B Prakash, JI Turayevich Data-Driven Decision Making in Stock Portfolio Management: LSTM and Monte Carlo Simulation in Action- Fluctuation and Noise Letters, 2023

6. Sovereign wealth funds of the Republic of Uzbekistan in the post-pandemic period. (2023). Pedagogical Cluster-Journal of Pedagogical Developments, 1(2), 355-372.

